



O'ZBEKISTON ZAMONAVIY MASJIDLAR ARXITEKTURASINING MUAMMOLARI.

Qoraboyev Shokirjon Jumaqo`zi o`g`li
Toshken xalqaro universiteti magistranti

Ilmiy rahbar:

O`ktam Nazarov Otabekovich

PhD dotsent Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti (Arxitektura va shaharsozlik kafedirasi)

Annotatsiya: *O`rta Osiyodagi masjid me`morchiligi tarixi va ularning tavsifi, tipologiyasi va bezaklari muhokama qilinadi. IX-XII asrlarda O`rta Osiyoda islom dinining tarqalishi davrida turli xil musulmon inshootlari qurilgan. Uchta me`moriy turdagi masjidlarning funksional farqlari ko`rsatilgan. Ularga kundalik namoz o`qish uchun mo`ljallangan kichik gvardiya masjidlari "amar", дума masjidlari kiradi. "Juma" masjidlari va shahar atrofidagi masjidlar "vamang" musulmonlarning asosiy bayrami bo`lmish "Kuchan" bayrami va Ramazon oyida jamoat namozlari o`qiladi. Bu uch turdagi masjidlarning funksiyalarini aks ettiruvchi maxsus tipologiyasi bayon etilgan. Ba'zi masjidlarning ta'rifi va tarixi ushbu hisobotda keltirilgan.*

Yurtimizda islom dinining ahamiyati va unga e`tiqod qiluvchilar soni aholi soniga nisbatan 80% ini tashkil etadi. Bu ko`rsatkichlardan shu ma`lum bo`ladiki aholimizning aksariyat qismi islom dinining muqaddas nomozgohi bo`lmish masjidlariga 1 kunda 5 mahal 30%, haftada 1 mahal 70%, yilda 2 marta 85-90%ga yaqin aholi masjidlarga ibodat uchun tashrif buyuradi. Bu o`z navbatida ko`plab qulayliklar yaratilishi lozimligini ko`rsatadi. Tadqiqotlar natijasida shu ma`lum bo`ldiki, ko`plab yetishmovchiliklar va kamchiliklar masjidlarimizda nomozxonlarga noqulayliklar tug`dirmoqda. Aholi soniga nisbatan masjidlar eshigini torligi, bir vaqtning o`zida 800 dan ortiq nomozxon 2 ta eni 120 smlik eshiklardan chiqishiga to`g`ri keladi. Bu 10 daqiqa vaqt oladi. Bu Katta Qani masjidining bir nomozxona sig`imi, bu masjidda bunday nomozxonalardan yerto`la qismiga qo`shib hisoblanganda 8 ta shu o`lchamdagi nomozxonani o`z ichiga oladi. Masjidning tashqi kirish darvozasi 280sm bo`lib, bu masjidda hovli qismiga qo`shib hisoblanganda o`rtacha 6000 ta nomozxon bir vaqtning o`zida shu darvozadan tashqariga chiqadi. Tadqiqotlar natijasida nomozxonlar nomoz tugagandan keyin to`la tashqariga chiqib bo`lgungacha bo`lgan vaqt 35-40 daqiqani tashkil etadi. Ramazon oyida milliy gvardiya tashkiloti tomonidan tashkillashtirilgan bombani aniqlovchi dedektorlar o`rnatilib, bu vaqt 60-65 daqiqagacha cho`ziladi. Tadqiqot obyekti sifatida ilonli ota masjidi o`rganilganda farq anchagina sezilarli. Ilonli ota masjidining hovlisiz masjidlar turiga kirishligi va nomozxonasining kirish eshiklari 2



ta asosiy yo'nalish oqimiga qaratilganligi keluvchilarning qisqa muddatda yig'ilib tez fursatda tashqariga tarqalishini ta'minlab beradi. Asosiy nomozxonona 3500 nomozxonni o'z bag'riga sig'dira oladi. Nomozxonlar 15 daqiqa ichida nomozxonani tark etadi. Bu vaqt taroveh nomozlarida va juma nomozlarida 5 daqiqaga o'zgaradi. Shu kabi ko'plab hovli masjid turiga kiruvchi masjidlarda va hovlisiz to'gridan to'g'ri nomozxonaga kiruvchi masjidlar orasida farqlar sezilarli. Tajribalardan ko'rinib turibdiki, hovlisimon masjidlarning hovlisiz masjidlarga qaraganda bir qancha kamchiliklar mavjud. Tahoratxonasi o'rganilganda har ikki tur masjidlarning tahoratxonalari turlicha kamchiliklarga ega. Ilonli ota jome masjidi tahoratxonasi hovlining orqa va chap tomonlarida joylashgan bo'lib masjid sig'imiga nisbatan anchagina kam. Taroveh, juma va hayit nomozlarida nomozxonlarga tahorat olish bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki bu vaqtda nomozxonlar kunlik nomozlarga nisbatan anchagina ko'p bo'lib tahoratxonaning kirish qismlarigacha to'ldirilgan bo'ladi. Tahoratxonona 40 nomozxonga mo'ljallangan.

Masjidning ichki sig'imi esa 5000 kishini tashkil etadi. Bu 125 kishiga 1 ta tahoratxonona degani. O'rganilgan ma'lumotlarga qaraganda 40 kishiga 1 ta tahoratxonona to'g'ri keladi. Bu degani 5000 nomozxonga 125 ta tahoratxonona xizmat qilish kerak. Shu yo'sinda Ilonli Ota jome masjidining tahoratxonasi o'rganilganda, tahoratxonona asosiy oqimga to'g'ri joylashtirilganligi va qulay yo'nalish tanlanganligi tahorat olmoqchi bo'lgan nomozxonlarga anchagina katta qulaylik beradi. 3000 nomozxonga 50 ta tahoratxonona xizmat qiladi va bu tahoratxonona nomoz boshlangan vaqtiga yetib kelgan va tahorat olmoqchi bo'lgan nomozxonlarga ham xizmat qilish barobarida ibodat qilayotgan nomozxonga halal bermaydi va hech bir vaqtda tahoratxonona oldi qismi nomozxonlar tomonidan band qilinmaydi.

Masjidlar haqida so'z borar ekan nomozxonlarni faqatgina nomozxonalarda emas balki, ochiq osmon ostida ibodat qilishlari uchun O'zbekiston masjidlar arxitektura sohasida arxitektorlar tomonidan hech qanday qulaylik va sharoit yaratilmagan. Kunning jazirama issig'ida tosh plitalarning 40°C da qizigan yuzasiga yozilgan joynomozlar va unda ibodat qilayotgan nomozxonlarning chekayotgan zahmati arxitektorlar tomonidan bartaraf etilishi lozim. Qish faslini oladigan bo'lsak, 10 smlik qor yog'gan mahallarda ham diniga bo'lgan muhabbatidan ham majburan qor ustiga joynomozini yozib, ibodat qilayotgan nomozxonlar uchun sharoit yaratib berish vaqti kelmadimikan? Bahor va kuz fasllarida sharros yomg'ir ostida ibodat qilayotganlar uchun ham usti yopiq nomozxonalarda bo'lgani kabi sharoit yaratib berish yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, Makka va Madina shaharlarida nomozxonlar uchun tashkillashtirilgan kunning jazirama va yog'ingarchilik vaqtida ochiladigan soyabonlar kabi soyabonlar tashkil etish yoki jalyuzi tomlarni yengil troslar yordamida tashkil etish bu kabi muammolarning asosiy yechimi bo'lib



xizmat qiladi. Ustki tarafdin himoya qiladigan bu kabi himoya vositalari ibodatchilarning ibodatiga qulaylik va erkinlik yaratib beradi. Shu bilan bir qatorda nomozxonlarning joynomoz o'rnida foydalaniladigan gilamlar o'rniga o'raladigan aniq bir mustahkam konstruksiyaga ega vaqtinchalik turg'un joynomozlar tashkil etish ham zarurligini tadqiqot natijasi ko'rsatib berdi. Bu turdagi joynomozlar suv shimmas va quyosh ta'sirida o'z sifati va haroratini o'zgartirmaydigan matodan tayyorlanadi. Joynomozlarning doimiy aniq bir konstruksiyada turishi nomozxonlarning kunlik nomoz vaqtlarida ham erkin holatda foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.



1-2-rasm Masjidlarning shaharsozlik nuqtai nazaridan tahlil

Masjidlarning shaharsozlik nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, nafaqat ramazon va qurbon hayit nomozlarida balki, juma hattoki, kunlik beshvaqt o'qiladigan nomozlarda ham nomozxonlarning mashinalari yo'llarda hosil bo'ladigan kattagina tirbandliklarni vujudga keltiradi. Kunlik nomozlarda bu ko'rsatkich qatnov qismining 60-70%ini, juma nomozlarida 100%ga qatnovni cheklaydi. Juma nomozlarida bu vaziyat 3-4 soatni, taroveh nomozlarida 6 soatni tashkil etadi. Hayit nomozlarida esa bu vaqt taxminan 10 soatgacha cho'zilishi mumkin. Bu vaqtda ko'chani qatnovi cheklanga qismida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in yoki tez yordam mashinalarining chaqirilgan manzilga yetib bora olmaslik holati shaharsozlik infratuzilmasi ayanchli ahvolda ekanligi yaqqol namoyon etadi (1-2-rasm).

Tadqiqotlarda aniqlangan holat Qushbegi ko'chasiga chaqirilgan yong'inni o'chirish mashinasi juma nomoz vaqtida hosil bo'lgan tirbandlik sabab manzilga yetib bora olmasdan, tirbandlikda qolib ketgan. Shunga o'xshash holatlar tez tibbiy yordam mashinalari ham bir necha marotaba hosil bo'lgan tirbandliklar sabab yuqoridagi holat yuz bergan. "ShNQ 2.07.01-03 "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalariga 19-ilovasiga O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy



kommunal xo'jaligi vazirligining Arxitektura va shaharsozlik bosh boshqarmasi tomonidan kiritilgan o'zgarishiga muvofiq masjidlar avtoturargohlari 10 nomozxonga 1 ta avtoturargoh inobatga olib rejalashtirish haqida o'zgartirish kiritildi. Vazirlar mahkamasining topshirig'iga muvofiq o'rganilgan Respublika masjidlarining masjid va avtoturargoh qismlari nomozxonlar sig'imiga nisbatan to'g'ri tashkillashtirish topshirig'i berildi.

Ijrosi Zokirov B.I zimmasiga yuklatilgan. 2023-yil 12-iyun 153-son.

2.2 Arxitekturada ko'r-ko'rona ko'chirmakashlik.

Arxitektura sohasi ijodkorlik, aniqlik, qulaylik va estetik jihatdan katta mas'uliyatli soha bo'lib, aniq hisob-kitoblarga tayangan holatda hech qaysi uslub va aniq ramzlarni kamsitmagan holatda loyihalar yaratilishini talab etadi. Bugungi kunda qurilayotgan ko'plab masjidlarda arxaika elementlarini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib, parodiya janrida ijod qilgandek, loyihalar yaratilmoqda. Masjidlarning asosiy ramzlari bo'lgan gumbaz, minora, mehrob qismlarini saqlab qolish zarur. 2024-yilning 11-mart kuni o'z faoliyatini boshlagan. Xasanxon Qori masjidida ishlatilgan ayrim elementlar to'g'ridan-to'g'ri klassik uslub masjidlaridan ko'chirilgan. Bu masjid o'zining O'zbekistondagi ilk Hi-Tech masjid nomi bilan shuhrat qozonishga ulgurdi.

2.3 Ko'plab masjidlarda qibla masalasi to'g'ri yo'naltirilmaganligi. O'zbekiston O'rta Osiya mintaqasida joylashgan bo'lib, nomozxonlarning qiblasini bo'lmish Kaba ziyoratgohi Toshkent shahridan 3500 km uzoqlikda joylashgan. Bu masofada masjidlarning qiblagacha to'g'ri yo'naltirilganligi bir gradusga o'zgaradigan bo'lsa yo'nalish 60 kmga o'zgaradi. Kaba joylashgan Makka shahri diagonaliga sharqdan g'arbga tomon 36 km, shimoldan janubga esa 43 km masofaga teng. Bundan ko'rinib turibdiki, masjidlar qiblasining 1 °C ga o'zgarishi umuman boshqa shaharga qarab ibodat qilishi demakdir. Bugungi kunda qurilayotgan ko'plab masjidlarning qiblasida ayrim xatoliklar yaqqol ko'ringan. O'zbekiston hududida qibla aniqlashning 3 ta asosiy yo'li mavjud. Bular quyidagilar:

1. Compass yordamida qurilayotgan yoki loyiha qilinishidan oldin musulmonlar idorasi tomonidan maxsus vakil kelib, qibla yo'nalishini aniqlab beradi.

2. Yilda 2 marta 21-mart hamda 22-sentyabr quyosh to'g'ridan-to'g'ri aniq yo'nalishda kabaning yo'nalishida botadi. Bu holatda masjidlar qiblasini aniqlash bir qancha aniqlik va shu bilan birga kamchilik hisoblanadi. Kamchiligi shundaki, bu hodisa yilda 2 martagina ma'lum bir vaqtlarga to'g'ri keladi. Masjidlar qurilish soni ko'pligi va vaqt chegarasi hisobiga ko'ra bu usulda qiblani aniqlash amaliyotda juda kamdan-kam foydalaniladi.

3. Eng aniq va eng qimmat uslub bu Astronomiya Instituti tomonidan aniqlanadigan uslubdir. Bu uslubda Institut olimlari tomonidan osmon jismlari yordamida 100 % aniqlikda qibla yo'nalishini aniqlab beradi. Bu usul qimmatligi sababli iqtisodiy tomonlama ta'minoti yuqori bo'lgan ayrim masjidlarda qo'llaniladi.



Baqara surasining 144-oyatida yuzinglarni xaram masjidiga qaratinglar deya keltirilgan. Ushbu oyatda ko'rinib turibdiki, masjidlar qiblasini to'g'riligi juda katta ahamiyatga ega.

Islom me'morchiligi tadqiqotchilari masjidlarni turli tiplarg olima T.X.Starodub o'zining doktorlik tadqiqotida islom olamidagi masji ayvonli – eroniy hamda markaziy

o'rinni katta gumbaz egallagan turk-usm o'tgan¹ O'rta Osiyo masjidlari tadqiqotchilari esa ushbu mintaqa masjidla quyidagi uchta asosiy guruhga ajratadi:

1. Qishki binosi (xonaqoh) bir tomondan ayvon bilan o'ralgan masjidla
2. Qishki binosi ikki tomondan ayvon bilan o'ralgan masjidlar: odatda sharq tarafdin.

3. Qishki binosi uch tomondan ayvon bilan o'ralgan masjidlar² Toshkent masjidlarni me'moriy jihatlaridan tashqari boshqa talab ham bir necha turkumlarga ajratish mumkin. Xususan, mavjud manbalardagi holda shahardagi masjidlarining qurilishi va joylashgan o'rniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- jome' masjidlar;
- iydgoth va namozgothlar;
- mahalla va guzar masjidlari;
- madrasalar tarkibidagi masjidlar;
- mozor-ziyoratgothlar qoshidagi masjidlar.
- bozorlar va rastalardagi masjidlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Myself. The first volume. Tashkent, 2000
2. <https://shosh.uz/toshkent-masjidlari-tarihidan/>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Minor_masjidi
4. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/tashkent-mosques-churches>
5. (DOC) Toshkent masjidlari - PDFSLIDE.TIPS

¹ Стародуб Т.Х. Эволюция типов средневековой исламской архитектуры.: Автореф. дис. ... док М., 2006. – С.27. Яна қаранг: Рашид Қалвир Ходжатулла. Становление и развертывание пространственной стру традиционной мечети Ирана: Михраб. Айван. Купол.: Автореф. дисс. ... канд. архитектуры

² Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. – С.54; Писарчик А.К. Народная архитектура Самарканда. – С.49.